

Sherxolov Olimjon Iskandarovich,
Samarqand davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
e-mail: o-sherxolov@mail.ru



NAVOIY VILOYATI AHOLISINING HUDUDIIY TASHKIL ETILISHINING IQTISODIY VA IJTIMOIIY JIHALTLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Navoiy viloyati aholisining zichligi va balandlik bo'yicha joylashuvi yoritilgan. Aholining hududiy tashkil etilishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar o'rganilgan. Aholining relyefga bog'liq holda joylashuvida viloyat aholi punktlarining dengiz sathidan balandligi elektron dasturlar asosida aniqlangan. Aholi punktlari balandligiga ko'ra kichik guruhlariga ajratildi va shu asosda viloyat tumanlari guruhlariga bo'lindi. Aholi punktlarining balandligi cho'l-dasht va tog'oldi mintaqalariga kirishi o'rganilib, aynan tadqiqotda cho'l-dasht (0–400 metrgacha) mintaqasining o'zi yanada kichik uchta guruhga ajratildi. Balandlikning ortishi turli xo'jalikni yuritishga o'z ta'sirini ko'rsatishi aniqlandi.

Аннотация. В статье рассматривается плотность населения и высотное расположение Навоийской области. Были изучены факторы, влияющие на территориальную расселение населения. В расположении населения по отношению к рельефу высота региональных населенных пунктов над уровнем моря определялась на основе электронных программ. Населенные пункты были разделены на небольшие группы в соответствии с их высотой, и на этой основе региональные районы были разделены на группы. Высота поселений была изучена для входа в районы степь-степной и предгорной и именно в ходе исследования сам пустынно-степной (до 0–400 метров) регион был разделен на еще три небольшие группы. Было обнаружено, что увеличение высоты оказывает свое влияние на содержание различных форм.

Annotation. This article discusses the population density and high-altitude location of the Navoi region. The factors influencing the territorial settlement of the population were studied. In the location of the population in relation to the relief, the height of regional settlements above sea level was determined on the basis of electronic programs. Localities were divided into small groups according to their height, and on this basis regional areas were divided into groups. The height of the settlements was studied to enter the steppe-steppe and foothill regions, and it was during the study that the desert-steppe region itself (up to 0–400 meters) was divided into three more small groups. It was found that the increase in height has its effect on the content of various forms.

Tayanch soʻzlar: *aholi, tugʻilish, oʻlim, migratsiya, zichlik, aholi joylashuvi, balandlik mintaqalari, aholi punktlari.*

Ключевые слова: *население, рождаемость, смертность, миграция, плотность, размещение населения, высотные районы, населенные пункты*

Keywords: *population, birth, death, migration, density, population location, altitudinal regions, settlements.*

Kirish. Aholi bor ekan, u doimo maʼlum bir joyda istiqomat qiladi. Aholi yashaydigan, asosiy hayot faoliyati kechadigan joylar aholi punktlari boʻlib, u shahar va qishloqlardan iboratdir. Navoiy viloyatidagi shahar aholi punktlari shakllanishida foydali qazilmalarning ahamiyati katta. Oʻtgan asrning ikkinchi yarmida Qizilqum choʻli geolog olimlar tomonidan oʻrganilishi natijasida qimmatbaho metallardan oltin va kumush, bundan tashqari, uran, volfram hamda koʻplab qurilish materiallari topildi. Ularning ishga tushirilishi aholi punktlarining shakllanishiga zamin yaratdi. Qishloqlarning paydo boʻlishi uzoq tarixiy davrlar bilan bogʻliq boʻlib, asosan, tabiiy sharoiti qulay oqar suv mavjud boʻlgan, yer yuzasi tekis hududlarda yirik qishloqlar shakllangan boʻlsa, bepoyon choʻllar, togʻlardagi buloq va soylar atrofida uncha katta boʻlmagan qishloqlar tashkil topgan. Ushbu tadqiqotda aholining hududiy tashkil etilishi oʻrganiladi.

Asosiy qism. Respublika hududlari oʻtgan asrning ikkinchi yarmida turli sohalarda tadqiq etilib, bepoyon choʻl deb atalgan Qizilqum, Mirzachoʻl, Qarshi choʻllari, asosan, qishloq xoʻjaligi maqsadlarida oʻzlashtirildi. Ushbu hududlarning oʻzlashtirilishi natijasida kimsasiz hisoblangan hududlarda aholi punktlari tashkil etilib, MDH davlatlari hamda respublikaning ishchi kuchi ortiqcha boʻlgan hududlaridan aholi koʻchirib keltirildi. Bu jarayonlar aholining hududiy tashkil etilishi hisoblanadi. Aynan Navoiy viloyatining resurs shaharlarida aholi shunday shakllangan.

Aholi soni dinamikasidagi ijobiy oʻzgarishlar, albatta, uning joylashuvida oʻz aksini topadi. Aholi joylashuvining asosiy koʻrsatkichlaridan biri bu aholi zichligidir¹. Mashhur olim Kovalyov S.A Qishloq aholi manzilgohlari joylashuvi toʻgʻrisidagi eng umumiy, batafsil tasavvurni aholi punktlarining oʻrtacha zichlik koʻrsatkichi beradi (Kovalyov S. A., 1963, 15-b), deb taʼkidlaydi.

¹ Шерхолов О.И. Навоий вилояти аҳоли жойлашувининг географик жиҳатлари // Комплекс географик тадқиқотлар: Инновация ва амалиёт, Республика илмий-амалий конференцияси. — Андижон, 27 май, 2022. — Б. 2426

Tabiiy sharoiti qulay va iqtisodiy jihatdan hududlarining o'zlashtirilganligiga bog'liq holda aholi zichligi viloyat tumanlari ichida bir-biridan keskin farq qiladi. Tadqiqot hududida aholi zichligi, asosan, tabiiy ko'payishga bog'liq holda yil sayin ortib borgan. Aholi zichligi 1992-yilda 1 km.kv. ga 6,3 kishi to'g'ri kelgan bo'lsa, 2020-yilda 9,0 kishini tashkil etgan (respublikada 75,5 kishi) holda bu ko'rsatkich bo'yicha oxirgi o'rinni egallaydi. 1992–2022-yillarda zichlik 1,4 barobarga oshgan, zichlikning ortib borishiga, asosan, hududning suv resursi bilan ta'minlangani, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan o'zlashtirilgani, katta-kichikligi sababdir. Shu boisdan ham aholi zichligi viloyatning tuman va shaharlarida bir xil darajada emas.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 1992-yilda viloyatning qishloq tumanlari ichida aholi zichligining yuqoriligi bilan Xatirchi va Karmana tumanlari ajralib turgan va mos ravishda aholisi zichligi o'rtacha 86,6 va 77,5 kishi bo'lgan holda nisbatan yuqori ekanligi bilan ko'zga tashlanadi.

Viloyatda 1992-yilga nisbatan 2020-yilda zichlikning 196,0 foizga ortib borishi bilan Nurota tumani birinchi o'rinda turgan bo'lsa, keyingi o'rinlarni Karmana (170,7%), Navbahor (165,6 %), Xatirchi (161,8%), Qiziltepa (159,7%) tumanlari egallagan. Bunga ushbu tumanlar hududining ancha kichikligi, oqar suvning mavjudligi, transport yo'llariga yaqinligi, tabiiy o'sishning yuqoriligi va ijtimoiy infratuzilmaning nisbatan rivojlanganligi kabi omillar sababdir.

Shuni ta'kidlash lozimki, barcha tumanlarda ham aholining o'rtacha zichligi ortib bormasdan, balki kamayib borayotgan tumanlar ham mavjud. Aholining o'rtacha zichligi 1992-yilga nisbatan Tomdi (48,2%), Konimex (18,9%) va Uchquduq (6,5 %) tumanlarida biroz kamaygan. Ushbu tumanlarda aholi o'rtacha zichligining kamayishiga yuqorida ta'kidlanganidek, tabiiy sharoitning noqulayligi, tug'ilishning kamligi va aholisining bir qismi Zarafshon shahriga ko'chib o'tganligi ta'sir ko'rsatgan. Shu sababli ushbu shahar aholisi zichligiga ko'ra viloyatda birinchi o'rinni egallab, zichlik 4190 kishini tashkil etgan. Umuman olganda, viloyatda aholi zichligi ancha past. Ayniqsa, shimoliy qismida zichlik o'rtacha 1 kishiga ham yetmaydi. Chunki ushbu hududning asosiy qismi cho'llardan iboratligi, oqar suvning taqchilligi, noqulay iqlim, unumdor tuproqlarning kamligi va hududining kattaligi aholi joylashishida juda noqulaylik tug'diradi.

Navoiy shahrida aholi zichligi 1992-yildan 2000-yilgacha muttasil ortib borgan bo'lsa, 2000–2005-yillarda biroz kamaygan. Bunga yuqorida ta'kidlanganidek, Navoiy shahridan Karmana shahri ajralib chiqqanligi va aholisining bir qismi ushbu shahar hisobiga o'tganligidir.

***Viloyatda
1992-yilga nisbatan
2020-yilda
zichlikning 196,0
foizga ortib
borishi bilan
Nurota tumani
birinchi o'rinda
turgan bo'lsa,
keyingi o'rinlarni
Karmana (170,7%),
Navbahor (165,6
%), Xatirchi
(161,8%), Qiziltepa
(159,7%) tumanlari
egallagan. Bunga
ushbu tumanlar
hududining
ancha kichikligi,
oqar suvning
mavjudligi,
transport yo'llariga
yaqinligi, tabiiy
o'sishning
yuqoriligi
va ijtimoiy
infratuzilmaning
nisbatan
rivojlanganligi
kabi omillar
sababdir.***

Undan keyin shaharda joylashgan ishlab chiqarish obyektlari qayta rekonstruksiya qilinishi, ularning quvvati oshirilishi, bundan tashqari, ko'plab kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlantirilishi, qo'shma korxonalarning tashkil etilishi, respublikada birinchi bo'lib erkin-iqtisodiy zonaning tashkil etilgani va boshqa omillarga bog'liq holda ish o'rinlarining ko'payishi aholining ko'plab ko'chib kelishiga hamda zichlikning ortib borishiga olib keldi.

1-jadval

**Navoiy viloyati tumanlarining zichlik bo'yicha guruhlanishi
(2022-yil)**

Aholi zichligi guruhlari	Tumanlar soni	Aholi soni, ming kishi	Jami aholiga nisbatan foiz hisobida	O'rtacha aholi zichligi (1 kv.km. kishi)	Guruhlarga tegishli tumanlar
29 gacha	4	177,3	22,5	4,9	Tomdi, Uchquduq, Konimex, Nurota
29,0-29,4	-	-	-	-	-
29,4-29,8	-	-	-	-	-
29,8-30,2	-	-	-	-	-
30,2 dan ko'p	4	611,4	77,5	107,5	Qiziltepa, Navbahor, Karmana, Xatirchi,
Viloyatda	8	788,7	100	56,2	

Jadval Navoiy viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Jadvaldan ma'lumki, viloyat tumanlari aholisining zichligiga ko'ra guruhlarga ajratilganda shundan 4 tasi eng quyi ko'rsatkich 29 gacha bo'lgan guruhlanishga mos kelgan bo'lsa, qolgan viloyatning 4 ta tumani esa 30,2 va undan yuqori guruhlanishga mos keladi. Qolgan o'rtadagi guruhlarga tegishli tumanlar viloyatda mavjud emas. Bu shundan dalolat beradiki, Tomdi va Uchquduq tumanlari tipik cho'l hududlari bo'lib, Konimex tumanining ham katta qismi cho'lligi va Nurota tumaning bir qismi cho'l hamda katta qismi tog'lardan iborat bo'lgani bois hududi katta, aholi soni esa kamdir. Qolgan barcha tumanlar qulay geografik o'ringa ega bo'lgani uchun zichlik yuqoridir.

Aholi zichligi eng past bo'lgan Tomdi va eng yuqori bo'lgan Xatirchi tumanlari o'rtasida zichlik ko'rsatkichi 362 martadan ko'proqqa farq qiladi. Aslida, yuqori keltirilgan aholining o'rtacha zichligi zichlikning "brutto" ko'rsatkichi mos keladi. A.S.Soliyevning ta'kidlashicha, "brutto" ko'rsatkich ma'muriy tumanning barcha hududlariga taalluqli (aholi yashash yoki yashamasligidan qat'i nazar, cho'l yoki tog' hududlarni ham

qamrab oladi). Binobarin, aholi zichligini qishloq fuqarolar yig'inlari darajasida aniqlash yaxshi natijalar beradi. Bunda zichlik, ayniqsa, qishloq xo'jaligida foydalanadigan yerlarga nisbatan hisoblansa, tahlil yanada chuqurroq va to'g'riroq bo'ladi². Shunday fikrni Gruziyalik olim V.Sh.Djaoshvili ham ta'kidlagan. Professor O.R.Rahmatullayev esa O'zbekistonning yirik vohalari uchun aholining "yer sig'imi" me'yorini ishlab chiqqan.

Aholishunos olimi Z.N.Tojiyeva hudud demografik sig'imini tadqiqotida qo'llagan. Hudud demografik sig'imi o'zgaruvchan xususiyatga ega kattalik hisoblanadi. Chunki yer maydoni katta aholi soni kam bo'lgan hududlarning demografik sig'im imkoniyati ba'zan past, aksincha, kichkina hudud bir necha barobarga ko'p aholini boqa olishi, sig'dirishi mumkin. Odatda hududning demografik sig'imini aniqlashda kunlik hayot uchun eng muhim bo'lgan tabiiy komponentlar tahliliga asoslanadi. Masalan, bularga aholini uy-joy bilan ta'minlash, sanoat korxonalari qurish uchun qulay bo'lgan yer maydonlari mavjudligi, suv resurslari, rekratsiya resurslari, oziq-ovqat zaxirasini tashkil etish va boshqalar kiradi³.

Aholi punktlarini iqtisodiy geografik o'rganishda ularni turli balandlik mintaqalari (gipsometrik holati) bo'yicha tahlil qilish ham katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega⁴. Navoiy viloyatining hududi notekis bo'lgani bois aholi punktlari turli balandliklarda joylashgan. Ma'lumki, balandlik ortib borgan sari harorat va havo bosimi pasayib, yog'in miqdori, o'simliklar turi va soni orta boradi. Bu tabiiy omillar hududlarning xo'jaligiga, ixtisoslashuviga, aholi soni va zichligiga, aholi punktlarining katta-kichikligiga, odamlarning tashqi ko'rinishi va sog'ligiga turlicha ta'sir ko'rsatgani uchun uni o'rganish yanada ahamiyatlidir.

Respublika hududlari turli yo'nalish va sohalarga ko'ra olimlar tomonidan rayonlashtirilgan. Aynan relyefiga ko'ra hududlarni guruhlariga ajratish va rayonlashtirishda Q.Z.Zokirov, T.Jumayev, A.Soliyev, M.Nazarov, Z.N.Tojiyeva, L.Z.Ibragimov va boshqa olimlar muhim tadqiqotlar olib borgan. Jumladan, akademik Q.Z.Zokirov Zarafshon vodiysi o'simliklarini uzoq yillar o'rganishlari natijasida vodiya 4 ta mintaqani – cho'l, adir, tog', yaylovga ajratishni taklif etgan bo'lsa, A.Sagatov respublika tabiiy geografik sharoitini atroflicha o'rganib,

***Aholishunos olimi
Z.N.Tojiyeva
hudud demografik
sig'imini
tadqiqotida
qo'llagan. Hudud
demografik sig'imi
o'zgaruvchan
xususiyatga
ega kattalik
hisoblanadi.
Chunki yer
maydoni katta
aholi soni
kam bo'lgan
hududlarning
demografik sig'im
imkoniyati ba'zan
past, aksincha,
kichkina hudud bir
necha barobarga
ko'p aholini boqa
olishi, sig'dirishi
mumkin.***

² Солиев А., Назаров М. Ўзбекистон кишлоклари (Кишлоқ жойлар географияси). – Тошкент: "Fan va texnologiya", 2009. – 212 б

³ Тожиёва З.Н. Ўзбекистон Республикасида демографик жараёнлар ва уларнинг худудий хусусиятлари. Геог. фан. док. ... дисс. – Тошкент: ЎзМУ, 2017. – Б. 82.

⁴ Сагаторов А.У. Сурхондарё вилояти кишлок аҳоли манзилгоҳларининг ривожланиш ва жойлашиш хусусиятлари. –Термиз, 2009. – 220 б.

Navoiy viloyatining relyefi notekis bo‘lib, sharq va janubi-sharqdan shimol va shimoli-g‘arbga hamda janubi-g‘arbga tomon pasayib boradi. Relyefga bog‘liq holda aholi punktlari turli balandliklarda joylashgan. Viloyat hududining katta qismi cho‘l-dasht mintaqasiga, ya‘ni 400 metrgacha bo‘lgan balandliklarga to‘g‘ri keladi. Tadqiqot yanada samarali bo‘lishi uchun viloyat tumanlaridagi har bir aholi punktining dengiz sathidan balandligi maxsus elektron dasturlar yordamida o‘rganildi va aholi punktlari balandligiga ko‘ra yanada kichikroq guruhlarga ajratildi.

uni “tekislik va tog‘oldi vohalari”, “cho‘llar”, “baland tog‘oldi va tog‘li hududlar” kabi uchta yirik rayonlarga ajratgan⁵.

Tog‘shunos olim T. Djumayev O‘zbekiston tog‘li hududlarida, ya‘ni dengiz sathidan 600 metrdan yuqorida jami aholining 10 foizi istiqomat qilishini qayd etadi. Muallif fikricha, eng yuqorida joylashgan qishloq aholi punktlari 2500 – 2700 metr oralig‘ida joylashgan (Djumayev T., 1989, 33 – 34 b)⁶. Navoiy viloyati hududining eng baland nuqtasi ham 2000 metrga yetmagani bois bunga to‘g‘ri keladigan aholi punktlari mavjud emas. A.Soliyev va M.Nazarovlar Respublikadagi 30 ga yaqin qishloq tumanlarini “tog‘lilik koeffitsiyenti”dan foydalangan holda tog‘li hududlar tarkibiga kiritgan⁷. Bu tadqiqotda Nurota tumani tog‘li hudud ekanligi ta‘kidlangan.

L.Z.Ibragimov janubi-g‘arbiy O‘zbekiston hududi tarkibidagi tumanlarni dengiz sathidan balandligi qarab quyidagicha rayonlashtirgan: Cho‘l-dasht (400 metrgacha); Tog‘oldi (400–1000 metrgacha); Tog‘li hududlar (1000 metrdan yuqori)⁸. Bizning tadqiqotimizda viloyat hududidagi aholi punktlarining balandlik bo‘yicha joylashuvi aynan L.Ibragimov tomonidan ajratilgan rayonlashtirishga mos kelishini inobatga olib, shu asosda o‘rganildi.

Navoiy viloyatining relyefi notekis bo‘lib, sharq va janubi-sharqdan shimol va shimoli-g‘arbga hamda janubi-g‘arbga tomon pasayib boradi. Relyefga bog‘liq holda aholi punktlari turli balandliklarda joylashgan. Viloyat hududining katta qismi cho‘l-dasht mintaqasiga, ya‘ni 400 metrgacha bo‘lgan balandliklarga to‘g‘ri keladi. Tadqiqot yanada samarali bo‘lishi uchun viloyat tumanlaridagi har bir aholi punktining dengiz sathidan balandligi maxsus elektron dasturlar yordamida o‘rganildi va aholi punktlari balandligiga ko‘ra yanada kichikroq guruhlarga ajratildi.

⁵ Ибрагимов Л.З. Жануби-ғарбий Ўзбекистонда аҳоли бандлигининг иқтисодий географик хусусиятлари. – Тошкент: ЎзМУ, 2022. – 243 б.

⁶ Солиев А., Назаров М. Ўзбекистон қишлоқлари (Қишлоқ жойлар географияси). – Тошкент: “Fan va texnologiya”, 2009. – 212 б.

⁷ Солиев А., Назаров М. Ўзбекистон қишлоқлари (Қишлоқ жойлар географияси). – Тошкент: “Fan va texnologiya”, 2009. – 212 б.

⁸ Ибрагимов Л.З. Жануби-ғарбий Ўзбекистонда аҳоли бандлигининг иқтисодий географик хусусиятлари. – Тошкент: ЎзМУ, 2022. – 243 б.

2-jadval

**Navoiy viloyati hududlarining balandlik mintaqalari asosida
kichik guruhlariga ajratilishi (2022-yil)**

№	Rayonlar	Kichik guruhlar	Tumanlar	Tumanlar soni	Umumiy maydoni (ming km ²)	Aholi soni (ming kishi)	Zichligi (1km ²)
1	Cho'lt-dasht (400 metrgacha)	(0–300 metrgacha)	Uchquduq, Tomdi	<u>2</u> 25,0	<u>89,1</u> 80,7	<u>53,8</u> 6,8	0,6
		(200–300 metrgacha)	Konimex, Qiziltepa	<u>2</u> 25,0	<u>11,4</u> 10,4	<u>193,3</u> 24,5	16,9
		(300–400 metrgacha)	Navbahor, Karmana	<u>2</u> 25,0	<u>2,5</u> 2,3	<u>249,0</u> 31,6	99,6
2	Tog'oldi (400-1000 metrgacha)	-	Nurota, Xatirchi	<u>2</u> 25,0	<u>7,4</u> 6,7	<u>292,5</u> 37,1	39,5
3	Tog'li hududlar (1000 metr va undan yuqori)	-	-	-	-	-	-
	Jami			<u>8</u> 100	<u>110,4</u> 100	<u>788,7</u> 100	7,1

Jadval <https://earth.google.com/web>, <https://ru-ru.topographic-map.com> saytlari va Navoiy viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Izoh: Kasr suratida – mutlaq miqdor, maxrajida – nisbiy ko'rsatkich.

Aholi punktlari joylashgan hududlarning yer yuzi doimo tekis bo'lmasdan eng yuqori va eng past joylari bir-biriga nisbatan 10–20, ba'zan 20–40 metrgacha, hatto undan ham ko'proqqa farq qilishi mumkin. Bu holat, ayniqsa, tog'li hududlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Shuning uchun aholi punktlari balandligini aniqlashda aholi punktining o'rtacha balandligi asos qilib olindi. Aholi punktlarining turli balandliklarda joylashganligiga ko'ra viloyat tumanlari bir-biridan farq qiladi.

Jadvalga keltirilgan ma'lumotlarga viloyatning Navoiy, Zarafshon, G'ozg'on shaharlariga tegishli ma'lumotlar kiritilmagan. Faqat tumanlarga oid ma'lumotlar keltirilgani bois viloyatning maydoni va aholi soni to'g'risidagi ma'lumotlarda o'zgarishlar mavjud.

Tomdi va Uchquduq tumanlari hududining asosiy qismi 200 metrgacha bo'lgan pasttekisliklar va 300 metrgacha bo'lgan tekisliklardan tashkil topganligiga bog'liq ravishda aholi punktlarining ham katta qismi 300 metrgacha bo'lgan balandliklarda o'rnatilgan. Aynan Tomdi tumani hududidagi Tomdibuloq shaharchasi va Ajirikti, Kinir, Ayoqquduq, Aldabergen, Shimbay, Qulumbet, Keriz kabi qishloqlarning balandligi

***Konimex
va Qiziltepa
tumanlaridagi
aholi punktlarining
asosiy qismi
200–300
metrgacha bo‘lgan
balandliklarda
joylashgan. Shu
o‘rinda ta’kidlash
lozimki, ayrim
aholi punktlari
unday balandlikka
yetmasligi yoki
baland bo‘lishi
ham mumkin.***

250–300 metr oralig‘ida joylashgan bo‘lsa, Beshbuloq, Nurmaxon, Suketti, Jiriq, Aktakir, Jingildi kabi qishloqlarda aholi, asosan, 200 metrga ham yetmaydigan balandliklarda yashaydi. Qizilqumning markazidagi past tog‘larning yonbag‘rida joylashgan ayrim aholi punktlari 300 metrdan oshishi mumkin. Bunga misol Zarafshon shahriga bo‘ysunuvchi strategik ahamiyatga ega bo‘lgan Muruntov shaharchasi Tomditov etagida joylashgan bo‘lib, uning balandligi 600 metr atrofida bo‘lsa, shu tumandagi Og‘iztau qishlog‘i 300 metrdan, Rohat qishlog‘i esa 400 metrdan balandda joylashgan. Uchquduq tumanining esa aksariyat aholi punktlari dengiz sathidan 200 metrgacha bo‘lgan balandliklarda o‘rnashgan. Masalan, Uchquduq shahri 198 m, Shalxar shaharchasi esa 150–160 metr balandliklarda joylashgan bo‘lsa, Buzaybay qishlog‘ining balandligi 100 metrga ham yetmaydi. Bu tumanda ham Tomdi tumani kabi tog‘ yonbag‘irlarida joylashgan ba’zi aholi punktlari balandligi 300, hatto 400 metrdan ham yuqoridadir. Masalan, Qulquduq va Kakpatas qishloqlari 300 metrdan yuqorida bo‘lsa, Jusquduq qishlog‘i esa dengiz sathidan 400 metrdan balandda joylashgan. Ushbu tumanlarda joylashgan aholi punktlari nihoyatda tarqoq bo‘lib, aholi soni kam bo‘lgan kichik qishloq va ovullardan iborat. Yaylovlarning mahsuldorligi past bo‘lgani tufayli chorvador aholi yilning asosiy davrida ko‘chib hayot kechiradi, faqatgina sovuq mavsumda qish uchun g‘amlab qo‘yilgan yem-xashak bilan chorvasini boqish uchun doimiy yashaydigan manzilgohida yashaydi. Qishloqlarda yashovchi erkaklarning bir qismi hayotini chorva boqish bilan o‘tkazishsa, ayollar esa chorva mahsulotlaridan turli buyum va oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlash bilan o‘tkazadi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, ushbu tumanlarning shahar aholi punktlari bajaradigan vazifasiga ko‘ra sanoat shaharlari hisoblansa, qishloq aholi punktlari esa ekstensiv chorvachilikka ixtisoslashgan qishloqlardir.

Konimex va Qiziltepa tumanlaridagi aholi punktlarining asosiy qismi 200–300 metrgacha bo‘lgan balandliklarda joylashgan. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, ayrim aholi punktlari unday balandlikka yetmasligi yoki baland bo‘lishi ham mumkin. Masalan, Konimex tumanining Konimex va Zafarobod shaharchalari 300 metrdan balandda joylashgan bo‘lsa, Oqsoy, Karakata, Nurbuloq, Shengeldi kabi qishloqlarining balandligi 150 metrdan ham past, Urazjon qishlog‘i esa 400 metr atrofida. Xuddi shu kabi holat Qiziltepa tumanining ayrim aholi punktlarida ham kuzatiladi. Aholi punktlarining aksariyati yo‘l yoqalarida joylashgan. Ushbu tumanlarda viloyat aholisining 18,7 foizi istiqomat qiladi.

Navbahor va Karmana tumanlari hududi nisbatan baland bo‘lib, ulardagi aholi punktlarining katta qismi 300–400 metr balandliklar oralig‘idadir. Aholi punktlarining asosiy qismi sug‘oriladigan hududlarda,

transport yo'llari atrofida bo'lib, ular zich joylashgan. Bu tumanlarda viloyat aholisining 24 foizdan ortig'i yashashadi.

Viloyatning baland hududi Xatirchi va Nurota tumanlari hududiga to'g'ri keladi. Ushbu tumanlarda joylashgan aholi punktlarining aksariyati 400–1000 metrgacha bo'lgan balandliklarda joylashgan. Ba'zi aholi punktlari 1000 metrdan ham yuqorida. Bunga Xatirchi tumani hududida joylashgan viloyat bo'ysunuvidagi Langar shaharchasi misol bo'lib, uning balandligi 1400 metr atrofida. Ushbu resurs shaharcha viloyat bo'yicha eng balandda joylashgan aholi punktidir. Xatirchi va Nurota tumanlaridagi aholi punktlarining katta qismi Oqtov va Qorotov tog'lari yonbag'ri va ular orasidagi vodiylarda o'rnatilgan. Tog'lardan boshlanadigan soy va buloqlarning mavjudligi aholi punktlarining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan bo'lib, ularning yoqasida joylashgan qishloqlar uzunchoq, tasmasimon ko'rinishga ega. Aholi uylari esa terrasasimon joylashgan. Bu tumanlardagi aholi punktlarining turli balandlikda o'rnatilganligi ham aholi joylashuvida muhim ahamiyatga egadir. Chunki soy va buloqlar atrofi kichik sug'orma dehqonchilikni rivojlantirish uchun xizmat qilib, aholining kundalik sabzovot va poliz ekinlariga bo'lgan ehtiyojlarini qisman qondirish uchun muhim bo'lsa, tog' yonbag'irlaridagi adirlar lalmi dehqonchilik uchun ahamiyatli hisoblanadi. Tog'larning baland joylari chorvachilik uchun yaylov sifatida foydalaniladi. Aholi azaldan bunday imkoniyatlardan foydalanib keladi. Shuning uchun ushbu tumanlarning suv mavjud bo'lgan tog' yonbag'irlarida, adirlarda uzumchilik, bog'dorchilik yaxshi rivojlangan. Lalmi yerlarda no'xat, bug'doy, arpa, masxar kabi ekinlarni ekib oladi. Albatta, bu ekinlarning hosili yog'in miqdoriga bog'liqdir.

Viloyatni aholi turmush tarzi nuqtayi nazaridan tadqiq etgan H.Obloqulov lalmi dehqonchilik bilan, asosan, Xatirchi tumanining Kattasoy, Maydonsoy, Uchqora, Chag'irko'l hamda Nurota tumanining Popanay, Soykechar, Qodoq, Ko'kcha, Rovot, Modivot, Suvliq, Ajrim, Chashma, Sovuqbuloq, Sob, Sentob va Katta-Esh qishloqlari aholisi shug'ullanishini⁹ ta'kidlagan. Lalmi dehqonchilik bilan viloyatning boshqa tumanlari aholisi ham shug'ullanadi.

Xulosa. Viloyat aholisining hududiy tashkil etilishida foydali qazilmalarning topilishi va ishga tushirilishi muhim ahamiyat kasb etgan. Ayniqsa, rangli metallar, uran va qurilish materillarini qazib olish va qayta ishlash negizida Uchquduq, Zarafshon, Muruntov, Zafarobod, Langar, G'ozg'on kabi resurs shahar va shaharchalar tashkil etilib, aholi ushbu aholi punktlariga ko'chirib ketirilgan. Aholi punktlarining balandlashib borishi turli xo'jalikni yuritishga sabab bo'ladi.

⁹ Облоқулов Ҳ.А. Навоий вилояти аҳолиси турмуш тарзи ва унинг ижтимоий-иқтисодий географик хусусиятлари. —дисс—Тошкент: ЎзМУ, 2021. — 143 б.

Viloyatni aholi turmush tarzi nuqtayi nazaridan tadqiq etgan H.Obloqulov lalmi dehqonchilik bilan, asosan, Xatirchi tumanining Kattasoy, Maydonsoy, Uchqora, Chag'irko'l hamda Nurota tumanining Popanay, Soykechar, Qodoq, Ko'kcha, Rovot, Modivot, Suvliq, Ajrim, Chashma, Sovuqbuloq, Sob, Sentob va Katta-Esh qishloqlari aholisi shug'ullanishini ta'kidlagan. Lalmi dehqonchilik bilan viloyatning boshqa tumanlari aholisi ham shug'ullanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ибрагимов Л.З. Жануби-ғарбий Ўзбекистонда аҳоли бандлигининг иқтисодий географик хусусиятлари. – Тошкент: ЎзМУ, 2022. – 243 б.
2. Облоқулов Ҳ.А. Навоий вилояти аҳолиси турмуш тарзи ва унинг ижтимоий-иқтисодий географик хусусиятлари. – Тошкент: ЎзМУ, 2021. – 143 б.
3. Сатторов А.У. Сурхондарё вилояти қишлоқ аҳоли манзилгоҳларининг ривожланиши ва жойлашиши хусусиятлари. – Термиз, 2009. – 220 б.
4. Солиев А., Назаров М. Ўзбекистон қишлоқлари (қишлоқ жойлар географияси). – Тошкент: “Fan va texnologiya”, 2009. – 212 б.
5. Tojiyeva Z.N. Aholi geografiyasi. – Toshkent: Noshir, 2019. –183 b.
6. ТоҒжиева З.Н. Ўзбекистон Республикасида демографик жараёнлар ва уларнинг ҳудудий хусусиятлари. Геог. фан. док. ... дисс. – Тошкент: ЎзМУ, 2017. – 82 б.
7. ТоҒжиева З.Н. Ўзбекистонда демографик модернизациялаш // Ўзбекистон география жамияти ахбороти. 42-жилд. Илмий мақолалар тўплами. – Тошкент, 2013. – Б.105–107.
8. ТоҒжиева З.Н., Ибрагимов Л. Ўзбекистонда аҳоли бандлиги ва унинг демографик асослари // СамДУ Илмий ахборотномаси. – Самарқанд, 2013. –№3. – Б. 93–96.
9. Шерхолов О.И. Навоий вилояти аҳоли жойлашувининг географик жиҳатлари // Комплекс географик тадқиқотлар: Инновация ва амалиёт, Республика илмий-амалий конференцияси. – Андижон, 27 май, 2022 йил. – Б. 242.
10. www.navstat.uz Navoiy viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari.
11. www.stat.uz O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.
12. <https://earth.google.com/web> сайти
13. <https://ru-ru.topographic-map.com> сайти